

**ТРИЗ (IMEN) METODI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ
VA TAFAKKURINI O‘STIRUVCHI VOSITA SIFATIDA**

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Muhammadova Dilnavoz Mustafo qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida TRI3 (IMEN) texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, vazifalari tahlil qilingan . TRI3 (IMEN) metodi maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq va tafakkurini o‘stiruvchi vosita sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘z: *TRI3 (IMEN).didaktik o‘yin, nutq, mashg‘ulot, tafakkur, ijodiy qobiliyat.*

Iqtidorli shaxsni tarbiyalash uchun, maktabgacha yoshdagi bolada ijodiy tafakkurni rivojlantirishni, nostandart fikrlash qobiliyatini, tevarak atrofdagi dunyoni bilish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida TRI3 texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, bir tomondan, moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektizm kabi fikrlash fazilatlarini rivojlantirish; boshqa tomondan, yangilikka intilish, qidiruv faoliyati; nutq va ijodiy tasavvurni rivojlantirishdan iborat. TRI3 (IMEN) metodi bu(теория решения изобретательских задач), ixtirochilik muammosini hal qilish nazariyasi bo‘lib, bu texnologoyaga nemis pedagogi T.S.Alitshuller asos solgan.

IMEN metodikasi:

O‘yinga asoslangan o‘quv uslubi;

Muammoni aniqlash, yechim topish va uni tanqidiy baholashni o‘rgatadi;

Bolalarda ijodiy va mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida TRI3 metodi maxsus ajratilgan vaqtni talab qilmaydi. Masalan, ertakni o‘qiyotganda, siz uning oxirini topishingiz yoki qahramonning xulq - atvorini tahlil qilishingiz, unga qanday yordam berish haqida o‘ylashingiz mumkin. TRI3 pedagogikasining diqqat markazida moslashuvchan tizimli boy, tassavurga ega bo‘lgan ijodkor shaxs turadi. TRI3 texnologiyalaridan foydalanish bolalar nutqini shakllantirishda yaxshi samara beradi. Bolalar bilan ishlashning asosiy vositasi pedagogik izlanishdir. Ushbu metodikada pedagog bolalarga tayyor bilim va haqiqatni ochib bermasligi, aksincha avval bolani masalaga qiziqtirib , keyin uni yechimini qanday topishga yo‘naltirishi kerak. IMEN usulidagi jumboqli o‘yinlar orqali bolalar qobiliyatini o‘stirish bilan birga, ularda hozirjavoblik, fantaziya, ixtiro qilish va qiyin vaziyatdan to‘g‘ri yo‘l topa olish kabi xususiyatlarni tarbiyalash mumkin. “Sholg‘om polizda kichkina bo‘lib o‘sibdi”, “Bu teremokda kimlar yashaydi?”, “Zamonaviy Zumrad va Qimmat”, “Men-Robot” hikoya va ertaklarini yangi talqinda ixtiro qilish orqali lug‘atlarini yangi so‘zlar bilan boyitadilar .

Ertakni qayta ixtiro qilish orqali bolalarning tafakkurlari ham kengaya boradi. Ertakni qayta ixtiro qilish orqali bolalarda shakllanadigan nutqqa oid ko‘nikmalar quyidagilarda ko‘rinadi;

- bolalar dialogik va monologik nutqini o‘stirish, tovush tizimi, lug‘at boyligini o‘stirishga, grammatik qoidalarga amal qilishni ta‘minlash;

- bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha ishlarni rejalashtirish;

- tayyorlov guruhi bolalarining nutq o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda intonatsiya, temp, ritorikalarini rivojlantirishga e‘tibor qaratish;

- tarbiyachilarning og‘zaki, ko‘rsatmali, amaliy, o‘yin usullarini qo‘llash va ta‘lim jarayoniga kreativ yondashuvlariga erishishga alohida e‘tibor berish lozim. Iqtidorli shaxsni tarbiyalash uchun, maktabgacha yoshdagi bolada ijodiy tafakkurni rivojlantirishni, nostandart fikrlash qobiliyatini, tevarak atrofdagi dunyoni bilish qobiliyatini rivojlantirish kerak. TRIZ texnologiyasiga ko‘ra, maktabgacha ta‘lim tashkiloti pedagoglari ta‘lim jarayonining etakchisiga emas, balki ishtirokchisiga aylanishadi. Rivojlanayotgan shaxsga ijodiy javob izlashga yordam berishadi.

Kuzatish va tajribalarimiz asosida aytishimiz mumkinki, bola maktabgacha ta‘lim tashkilotiga kelgan kundan boshlab ijtimoiy tajribani o‘zlashtira boshlaydi. Bu jarayon sintetik faoliyatga asoslangan bo‘lib, uning amal qilishida bolalar dunyoqarash (barcha o‘quv predmetlariga oid bilimlar), axloq, badiiy-estetik faoliyat asoslarini egallab olishadi. Yuqori guruhlariga ko‘tarilgan sayin bu faoliyat asoslarini o‘rgatish analitik xarakterga ega bo‘la boshlaydi. Nutq o‘stirish, badiiy adabiyot, musiqa, matematik savodxonlik, ikkinchi tilni o‘rganish jarayonini ko‘z oldingizga keltiring. Agar kichik guruhlarda bola faoliyatining barcha turlari boshlang‘ich ma‘lumot atrofida jamlansa, bolalar boshlang‘ich ma‘lumot xususiyatlaridan kelib chiqib, nutq faoliyatini egallashsa asta sekinlik bilan yuqori guruhlariga ko‘tarilganda nutq madaniyati, tafakkur jarayoni kundalik faoliyat, o‘yinlar va mashg‘ulotlar asosida yanada rivojlantiriladi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, didaktik o‘yinlar asosidagi birgalikdagi ijodiy faoliyatni tashkil etish sintetik xarakterda bo‘lishi lozim. Bu katta va maktabga tayyorlov guruhi bolalarining nutq va tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini o‘stirish jarayoniga ham to‘g‘ri keladi. Negaki, bu yoshda bolalar narsa va hodisalarni yaxlit tasavvur qilish layoqatlari rivojlangan. Analizga o‘rgatish maktab ta‘limiga qadam qo‘ygandan keyin boshlanadi.

Demak, an‘anaviy ta‘limdagi kabi bir xil qoidalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta‘lim jarayonining ta‘sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiyadir. Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish ta‘lim tizimi rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Buning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida pedagogik loyiha va texnologik xarita asosida amalga oshiriladi. Mashg‘ulot tuzilishi, shakllari, usullari va didaktik vositalar modulga kiritiladi. Modul - bu interfaol ta‘lim usullari jumlasiga kiradi va asosan quyidagi bosqichlar asosidagi jarayondan iboratdir:

1. Takrorlash - avvalgi bilimlarni esga solish. Bunda oldingi o‘rganilgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan yangi mavzuga tegishli ma’lumotlar orasidagi uzluksizlik va uzviylikni ta’minlashga erishishga harakat qilinadi.

2. Anglash - yangi axborotlarni o‘rganish. Bunda oldingi o‘rganilgan ma’lumotlar axborotlarga aylantiriladi va ular negizida yangi axborotlarni o‘zlashtiradi.

3. Fikrlash - yangi g‘oyalar va axborotlarni aytib berish va muhokama qilishdan iborat. Haqiqatdan ham kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishimiz uchun ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha bajariladigan ishlarimiz talaygina.

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda axborot texnologiyalar yordamida maxsus mashg‘ulotlar tashkil etish bolalarning dialogik ravon nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dialogik ravon nutqini rivojlantirish suhbat metodi va imitatsiya metodi asosida o‘tkaziladi va quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- tayyorgarlik suhbat (so‘zlashish usullari);
- sahnalashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Tajribalarimiz davomida mediamatnlardan foydalanib suhbat jarayonini tashkil etishda bolalarni suhbatdosh so‘zlarini bo‘lmasdan tinglash, suhbatdosh uchun tushunarli qilib so‘zlash, yo‘ldosh – talaffuz va grammatik ko‘nikmalarni mashq qilish, ma’lum so‘zlar ma’nosini aniqlashtirishga o‘rgatiladi. Bunga tevarak- atrof va ona-Vatan, maishiy mavzudagi, buvuk siymolar va bayramlar, harbiy qo‘shinlar, mashhur sarkardalar, kattalar mehnati, transport va aloqa vositalari, maishiy-xo‘jalik va mehnat buyumlari, xalq ijodi, tabiat, shuningdek, bolalar bog‘chasida bolalarning turli faoliyatlari (o‘yinlari, mehnat, o‘zaro yordam va hokazo) kiradi. Suhbatda asosiy o‘rgatish usuli savollar berishdir. Mazmunan va shakl jihatdan har xil murakkablikka ega bo‘lgan savollardan foydalanish mumkin.

Bu usullarning barchasi suhbat vaqtida bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga yo‘naltiriladi, nutqiy muloqotni ta’minlash, xulosa chiqarishni, ob’ektlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, ularning diqqat e’tiborlarini, xotirlarini, emotsionallikni faollashtirishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Grosheva I.V. va boshq. O‘yin orqali ta’lim olish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent.: MTV, 2021.

2. Muslimov N.A. va boshq. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015

3. Olimov Sh.SH., Ro‘ziyev F.J. va boshq. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari. Toshkent: Tafakkur avlodi. 2022

4. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. - - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019